



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**



“Tasdiqlayman”

O‘quy ishlari bo‘yicha prorektor


dots. O‘.Axmedov

“19” 08 2025 yil

**KASBIY NUTQ MADANIYATI
FANI BO‘YICHA SILLABUS**
(kunduzgi ta‘lim shakli uchun)

Bilim sohasi: 5001000 - Tabiiy fanlar, metematika va statistika
Ta‘lim sohasi: 530000 - Fizika va tabiiy fanlar
Ta‘lim yo‘nalishlari: 60530100- Kimyo

Termiz-2025



Modul/FAN SILLABUSI
Kimyo fakulteti
60530100-Kimyo



Fan nomi:	Kasbiy nutq madaniyati
Fan turi:	Tanlov
Fan kodi:	KNM302
Yil:	2025/2026
Semestr:	6
Ta'lim shakli:	Kunduzgi
Mashg'ulotlar shakli va semestrga ajratilgan soatlar:	60
	<i>Semestr</i>
	6- semester
Umumi o'quv soati:	60
Auditoriya soati:	30
Ma'ruza:	16
Amali mashg'ulotlar:	14
Labaratoriya mashg'ulotlari:	
Seminar:	
Mustaqil ta'lim:	30
Kredit miqdori:	2
Baholash shakli:	Yozma
Fan tili:	O'zbek

Fan maqsadi(FM)

Talabalarining kasbiy hayotda muvaffaqiyatli muloqot qila olishlari uchun zarur bo'lgan yozma va og'zaki nutq madaniyati, uslubiyati hamda muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Bu fan nafaqat o'quv jarayonidagi bilimlarni oshiradi, balki talabalarining kasbiy faoliyatda o'z o'rinlarini topishlari va muvaffaqiyatli mutaxassis bo'lib yetishishlariga zamin yaratadi. Shuningdek, kelgusida mutaxassisligidan kelib chiqib tanlangan sohasidagi faoliyati davomida nutqiy bilim, ko'nikma va malakalarni amaliy qo'llay olishini nazarda tutadi.

Fanni o'zlashtirish uchun zarur boshlang'ich bilimlar

hozirgi o'zbek adabiy tili;
nutq madaniyati;

Ta'lim natijalari (TN)

Bilimlar jihatidan:

TN1 Nutqning asosiy tamoyillari va strukturalari: Talaba kasbiy nutqning maqsadlari, tuzilishi va turlarini bilishi kerak. Masalan, taqdimotlar,

	ma'ruzalar, va yozma xatlar kabi turli kommunikatsiya formatlarini tushunish.
TN2	Grammatik va stilistik qoidalar: To'g'ri grammatik qurilish, so'z turkumlari va til uslubining professional muhitda qanday qo'llanilishini bilish.
TN3	Ritorik usullar va strategiyalar: Nutqda ishonchli va samarali ifoda uchun kerakli ritorik texnikalar, argumentatsiyani o'rganish.
TN4	Kommunikatsiya nazariyasi: Turli kommunikatsiya nazariyalari, ularning kasbiy nutqda qanday ishlatilishi va samaradorligi haqida bilim.
TN5	Auditoriya tahlili: Turli auditoriya guruhlarining ehtiyojlari, qiziqishlari va muloqot uslublarini qanday tushunish va moslashtirish haqida bilim.
Ko'nikmalar jihatidan:	
TN6	Samarali nutq tayyorlash va taqdim etish: Nutqni o'z vaqtida tayyorlash, tarkibni tizimli va qiziqarli tarzda taqdim etish ko'nikmasi.
TN7	To'g'ri talaffuz va vokal texnikalar: Nutqda to'g'ri talaffuz, ovozni boshqarish va jismoniy ifodalarni samarali ishlatish ko'nikmasi.
TN8	Nutqiy mimika: Nutq jarayonida mimika, jestikulatsiya va jismoniy ifodani moslashtirish va uni samarali qo'llash ko'nikmasi.
Kompetensiyalar jihatidan:	
TN10	— Muloqot strategiyalarini qo'llash: Turli kommunikativ vaziyatlarda (masalan, muhokama, kelishuv, qaror qabul qilish) mos muloqot strategiyalarini qo'llay oladi;
TN11	— Ziddiyatlarni hal qilish: Kasbiy muhitda yuzaga keladigan ziddiyatlar va muammolarni hal qilish uchun samarali nutq va kommunikatsiya usullarini qo'llay oladi.

Fan mazmuni		
Mashg'ulotlar shakli: ma'ruza (M)		
6-semestr		
M1	Kasbiy nutq madaniyatining nazariy asoslari.	2
M2	Kasbiy nutqda muloqot qoidalari va standartlari.	2
M3	Professional etiket: rasmiy va norasmiy muloqot.	2
M4	Kasbiy muloqotda nutq madaniyatining axloqiy asoslari.	2
M5	Yozma va og'zaki nutq faoliyatlari orqali kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish.	2
M6	Kasbiy yozish: hujjatlar va ularning yozma strukturasi.	2
M7	Raqamli texnologiyalar va kasbiy nutq.	2
M8	Xalqaro muloqot va madaniyatlararo nutq madaniyati.	2
Jami soat:		16
Mashg'ulotlar shakli: amaliy mashg'ulot (A)		
6-semestr		
A1	Rasmiy hujjatlar yozish ko'nikmalarini rivojlantirish.	2
A2	Elektron pochta va ijtimoiy tarmoqlarda yozish va muloqot etikasi.	2
A3	Og'zaki ma'lumotni o'qish va taqdim etish.	2

A4	Notiq va notqlikning o'ziga xos xususiyatlari.	2
A5	Raqamli vositalar va kasbiy muloqotda ularning qo'llanilishi.	2
A6	Fikrlarni tushunarli va samarali ifodalash mashg'ulotlari.	2
A7	Muloqotda muammolarni tahlil qilish va ularni yechish.	2
Jami soat:		30
Mustaqil ta'lim (MT)		
6-semestr		
1	Kasbiy muloqot uslubiyati va qoidalar.	2
2	Yozma nutq uslubiyati: hujjatlarni tuzish va tahrirlash.	2
3	Og'zaki nutqda samarali taqdimot tayyorlash.	2
4	Raqamli muloqot vositalaridan foydalanish.	2
5	Etiket va muomalaviy madaniyat.	2
6	Turli madaniyatlararo muloqotlarda ishtirok.	2
7	Kasbiy terminologiyani tushunish.	2
8	Texnikaviy kommunikatsiya vositalari.	2
9	Professional muloqotda muvaffaqiyatli bo'lish.	2
10	Taqdimot tayyorlash va amaliyotlar.	2
11	Suhbatni rivojlantirish va tanqid qilish.	2
12	Samimiy muloqotlar va munosabatlar.	2
13	Muloqotlarda savollar va javoblar.	2
14	Muloqotda diqqatni jalb qilish va boshqarish.	2
15	Raqamli muloqotlar va joriy ko'rsatgichlar.	2
Jami:		30

Asosiy adabiyotlar		
1	Husanov B. Muomala madaniyati. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. O'zbekiston Milliy universiteti. – T.: “Ta'lim nashriyoti”, 2009. – 156 b.	
2	Jumaniyozov R. Nutqiy mahorat. T.: Adolat, 2005.	
3	Safarova R., G'ulomova L., Kenjaeva X., Qodirova M., Berdiyeva G. Kasbiy nutq madaniyati. – Toshkent, “Fan va texnologiya”, 2021. –164 b.	
4	Horn, D. (2024). Principles of Public Speaking (21th ed.). Routledge.	
5	Кортова Т.В. Русский язык и культура речи. М.: Моск. отд. изд-ва «Учитель», 2018. Трофимова О.В., Купчик Е.В. Основы делового письма. / О.В.	
Qo'shimcha adabiyotlar		
1	O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5850-sonli Farmoni (Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 21.10.2019, 06/19/5712/3034-son)	
2	G'ofurov I., Boltayev M., Murodov M. O'zbek nutq madaniyati. – Toshkent: “Fan va texnologiya”, 2017. – 200 b.	

3	Mamajonov B., Kenjayev Z., Qo'chqorov F. Kasbiy muloqot va nutq madaniyati. – Toshkent, “Yangi asr avlodi“, 2022. – 185 b.
4	Asqarov M. Nutq madaniyati va kommunikativ kompetensiya. – Toshkent: “Iqtisodiyot va madaniyat”, 2018. – 148 b.
5	Nurmatov A. Kasbiy muloqot etiketasi. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2020. – 172 b.
6	Jalolov X. Yozma va og‘zaki muloqot madaniyati. – Toshkent: “Akademnashr”, 2019. – 190 b.
7	Sattorov G. Madaniyatlararo kommunikatsiya asoslari. – Toshkent: “Sharq”, 2021. – 160 b.
8	Boqijonov M. Yozma va og‘zaki muloqot madaniyati va strategiyalari. – Toshkent: “Akademnashr”, 2020. – 150 b.
9	Трофимова, Е.В. Купчик; Тюменский государственный университет. – 4-е изд., стер. – Москва: ФЛИНТА, 2019. – 305 с. – Режим доступа: по подписке.
10	Hallsby, Atilla. Reading Rhetorical Theory: Speech, Representation & Power. University of Minnesota Libraries Publishing.

Talabanning fan bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichini nazorat qilishda quyidagi mezonlar tavsiya etiladi:

a) 5 baho olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini to'liq yoritma olsa;
- fundagi mavzularni bayon qilishda ilmiylik va mantiqiylik saqlanib, ilmiy xatolik va matn chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fan bo'yicha mavzu materiallarining nazariy yoki amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega bo'lsa;
- fan doirasida mustaqil erkin fikrlash qobiliyatini namoyon eta olsa;
- berilgan savollarga aniq va lo'nda javob bera olsa;
- konspektga puxta tayyorlangan bo'lsa;
- mustaqil topshiriqlarni to'liq va aniq bajargan bo'lsa;
- fanga tegishli qonunlar va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarni to'liq o'zlashtirgan bo'lsa;
- fanga tegishli mavzulardan biri bo'yicha ilmiy maqola chop ettirgan bo'lsa;
- tarixiy jarayonlarni sharxlay bilsa.

b) 4 baho olish uchun talabanning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

- fanning mohiyati va mazmunini tushungan, fundagi mavzularni bayon qilishda ilmiy va mantiqiy chalkashliklarga yo'l qo'ymas;
- fanning mazmunini amaliy ahamiyatini tushungan bo'lsa;

fan bo'yicha berilgan vazifa va topshiriqlarni o'quv dasturi doirasida bajarsa;

fan bo'yicha berilgan savollarga to'g'ri javob bera olsa;

fan bo'yicha konspektini puxta tayyorlagan bo'lsa;

fan bo'yicha mustaqil topshiriqlarni to'liq bajargan bo'lsa.

v) 3 baho olish uchun talabning bilim darajasi quyidagilarga javob berishi lozim:

fan haqida umumiy tushunchaga ega bo'lsa;

fundagi mavzularni tor doirada yoritib, bayon qilishda ayrim chalkashliklarga yo'l qo'yilmasa;

bayon qilish ravon bo'lmasa;

fan bo'yicha savollarga mujmal va chalkash javoblar olinsa;

fan bo'yicha matn puxta shakllantirilmagan bo'lsa.

g) quyidagi hollarda talabning bilim darajasi qoniqarsiz 2 baho bilan baholanishi mumkin:

fan bo'yicha mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rilmagan bo'lsa;

fan bo'yicha mashg'ulotlarga doir hech qanday tasavvurga ega bo'lmasa;

fan bo'yicha matnlarni boshqalardan ko'chirib olganligi sezilib tursa;

fan bo'yicha matnda jiddiy xato va chalkashliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa;

fanga doir berilgan savollarga javob olinmasa;

fanni bilmasa.

Fan o'qituvchisi haqida ma'lumot

Mualliflar:	Normurodova Zarifa Ruziqulovna, TerDU "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchisi
E-mail:	zarifanr2020@gmail.com +998(93)-075-19-29
Tashkilot:	TerDU "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida
Taqrizchilar:	U.Rahimova – Termiz davlat universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida katta o'qituvchisi, PhD. I.Islomov – Toshkent Renessans ta'lim universiteti dotsenti, f.f.d., DSc.

Mazkur Sillabus o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2025-yil 26 08 1 -sonli yig'ilish bayoni bilan ma'qullangan.

Mazkur Sillabus universitet o'quv-uslubiy kengashning 2025-yil 29 08 1 -sonli yig'ilish bayoni bilan tasdiqlangan.

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i

Fakultet dekani

Kafedra mudiri


Tuzuvchi

I. Shoymardonov

H. Axmedov

A. Eshmuminov

Z.R. Normurodova



Faint, illegible text, possibly bleed-through from the reverse side of the page.